

**BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI PIRLS TADQIQOTIGA
TAYYORLASH MASALASI.**

Abdurahmonova Mohichehra Mumin qizi.

Shahrisabz davlat Pedagogika instituti.

„ Boshlang'ich ta'lim" yo'nalishi talabasi.

Annotatsiya.

Ushbu maqolada boshlang'ich sinf (4-sinf) o'quvchilarini PIRLS tadqiqotiga tayyorlash masalalari va bu tadqiqotda qatnashishdan asosiy maqsad, boshlang'ich sinf o'quvchilarini tadqiqotga tayyorlashda nimalarga e'tibor berish kerakligi, ayni shu borada olib boriladigan islohotlar haqida batafsil fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar.

O'qish savodxonligi, tushunish jarayoni, so'rovnomalar, ePIRLS, onlayn o'qish savodxonligi, badiiy matn, axborot matni.

Kirish.

Yaqin yillardan buyon o'quvchi yoshlarning turli xil fanlar bo'yicha savodxonligini baholash tadqiqotlari amalga oshirilyapti. Bundan asosiy maqsad faqat bilimli yoshlarni ajratib olish, ya'ni aholi savodxonligini tabaqalashtirish emas, balki jahon bo'yicha turli mamlakatlar bilim savodxonligini o'z mamlakatimiz bilimi bilan qiyosiy tahlil qilish, yutuq va kamchiliklarini o'rganish.

Bugungi kunda PISA, PIRLS, TIMSS, TALIS va boshqa tadqiqotlarda ishtirok etish, bu xalqaro dasturlarni tashkil etishda asosiy maqsad ham shu.

Mamlakatimiz ham 2021-yilda PIRLS tadqiqotiga ilk bor qatnashdi hamda yurtimizda o'qish savodxonligi yo'nalishini rivojlantirish uchun ilg'or tajribalarni o'zlashtirdi.

Boshlang'ich sinflar orasida fikrlashni o'stirish, matni tushunish, o'qish savodxonligini oshirish masalalari pedagoglarning oldida turgan dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Chunki kuzatuv ishlari natijasida aytish mumkinki, ayrim boshlang'ich sinf o'quvchilari orasida matni mazmunan to'g'ri tushunish va uni ifodalay olish darajasi ancha sust. Shu maqsadda, boshlang'ich sinflarda yuqoridagi vazifalar bo'yicha turli chora- tadbirlar ko'rish maqsadga muvofiqdir.

Muhokama va natijalar.

O'quvchilarning yutuqlarini baholash barcha o'quvchilardan emas, balki ushbu tadqiqot kesimida tanlab olingan o'quvchilardan obyektiv testlar olish orqali amalga oshiriladi.

PIRLS nima va u nima maqsadda amalga oshiriladi?

PIRLS xalqaro tadqiqoti boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qib tushunish ko'nikmalarini qay darajada rivojlanganligi haqidagi ma'lumotlarni xalqaro miqyosda taqqoslash imkonini beradigan o'qish va o'qitishni yaxshilashda ta'lim sohasidagi davlat siyosatiga xizmat qilishi mumkin bo'lgan tahlillarni taqdim etadigan yirik xalqaro baholash dasturi hisoblanadi.[1]

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ushbu tadqiqotga tayyorlash borasida turli chora- tadbirlarni amalga oshirish muhim masaladir. Birinchi navbatda, o'quvchilarning o'qigan matnlardan xulosalar chiqarish, matni o'qiyotganda sinchkovlikni oshirish, har bir jumlagi e'tiborni qaratish kabi tadbirlarni amalga oshirish kerak.

Biror matndan boshlang'ich sinf o'quvchilari qanday xulosa chiqarishi mumkin?

Masalan, matndan yaxshi va yomon obrazlarni ajrata olishi va ular haqida fikr bildirishi mumkin.

PIRLS xalqaro baholash dasturida tanlan olingan matnlar o'quvchilar uchun notanish, maktabda ham maktabdan tashqarida ham uchratmagan holatda emas, bola yoshiga mos va xos holda bo'ladi. Bola matndagi holatga tushgan bo'lishi mumkin, lekin shu holatda qanday yo'l tutganiga e'tibor bermagan bo'lsa, yuqoridagi matnlar ozgina qiyinchilik tug'dirishi mumkin.

PIRLS tadqiqotidagi matnlarning aksariyati boshlang'ich sinf o'qish darsliklaridan olinib, tahlil qilinadi. Shuning uchun bolalarni maktabda ham maktabdan tashqari qo'shimcha mashg'ulotlarda o'qib tushunish savodxonligini tekshirib turish kerak.

Ushbu qatlamga oid o'quvchilarni tadqiqotga tayyorlashda ularni boshlang'ich sinf darsliklari bilan izchil tanishtirib borish kerak. Garchi bu qatlamga kiradigan o'quvchilar 4- sinf o'quvchilari bo'lsa ham. Chunki 1-2-3-sinf o'qish darsliklari bolalarning yodidan chiqqan bo'lishi mumkin.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisining PIRLS tadqiqotiga o'xshash kichik tadbirlarni bir sinf jamoasida yoki maktab miqyosida olib borishi yaxshi samara beradi. Bu jarayonda tadqiqotda ishtirok etadigan o'quvchilarning bilim saviyasi yanada oshsa, boshqa o'quvchilarning bilimi o'z darajasidan bir pog'ona yuqoriga ko'tariladi.

Avvalo, PIRLS matnlari bilan tanishib chiqish va shunga o'xshash savol va topshiriqlar tuzish uni o'quvchilarga taqdim etish o'qituvchilarning boshlang'ich sinf o'quvchilarini PIRLS xalqaro tadqiqotiga tayyorlash borasidagi vazifalaridan biri hisoblanadi.

Dars vaqtida bir matn yoki she'r tahlilida ham she'r yoki matnning muallifi, matndagi voqealarning o'quvchi hayotida bo'lgan-bo'lmaganligi to'g'risida topshiriqlar bajarish ham to'g'ri bo'ladi.

PIRLSga oid matnlarga e'tibor bersak, 3-sinf o'qish kitobidan „YO'LDA" Shukur Xolmirzayev

Ota, ona va o'g'il shaharga kelayotgan edilar. Onasi bilan otasi – otda, bola eshakda.

Dala yo'li. Kun isib ketdi. Bola chanqadi. Dadasidan suv so'radi.

- Chida, o'g'lim, chida. Shaharga tushaverishda buloq bor. O'shandan ichasan.

Biz ham ichamiz. Ulovlarni ham sug'oramiz, - dedi otasi.

Bola chidab, eshakni haydayverdi.

Havo isigandan isidi. Tuproq yo'l ustida allanimalar jimir – jimir etardi.

Tandir o'gzidan chiqqan hovurga o'xshaydi. Bolaning suv ichgisi kelib, battar qiynaldi. Tanglayi qotib, lablari bir-biriga yopishib qola boshladi. Yig'lab yubordi. Suv so'radi.

- Suv yo'q-ku, o'g'lim. Ko'rib turibsan o'zing. Demak, chidash kerak.

Chidamsiz kishi qiyinchilikka bardosh berolmaydi. "Men chidamliman!" deb o'yla. O'zingni chalg'it, atrofni tomosha qil, - deb maslahat berdi otasi.

Ular yo'lda davom etishdi. Shaharga tushaverishda toshlar ostidan oqib chiqayotgan buloq bo'yiga yetishdi. Ulovlardan tushishdi.

Hamma xursand edi. O'zlari ham buloqdan suv ichdilar. Ulovlarini ham sug'orishdi. Keyin asta yo'lga tushishdi.

Qalay endi, o'g'lim! Chidasa bo'lar ekanmi? – dedi otasi.

Ha, odam chidasa bo‘lar ekan. O‘zini chalg‘itadimi, boshqa ish qiladimi, baribir chidasa bo‘ladi.

Otasi chidamlilik, qiyinchiliklarga bardosh bera olish odamning eng yaxshi fazilatlaridan biri ekanligini tushuntirdi.

1- topshiriq: O‘g‘li nima uchun chanqab ketdi?

2-topshiriq: ”Tushunchalar tahlili” metodi orqali so‘zlarga izoh bering.

”Tushunchalar tahlili” metodi.

Tushuncha	Mazmuni
-----------	---------

Buloq	
-------	--

Tanglay	
---------	--

Ulov	
------	--

Hovur	
-------	--

Chidamlilik	
-------------	--

Qiyinchilik	
-------------	--

Fazilat	
---------	--

3-topshiriq: Mavzu yuzasidan quyidagi so‘zlarga “Sinkveyn” tuzing.

Ona, ota, o‘g‘il.

Namuna:

1.Ona

2.G'amxor, mehribon

3.Tarbiyalaydi, erkalaydi, quchoqlaydi

4.Ona g'amxo'rlik bilan bolasini tarbiyalaydi.[2] Yana bir qn ha savollar berilishi mumkin.[2]

PIRLS xalqaro tadqiqotiga qo'yiladigan savol va topshiriqlarning aksariyati yuqoridagi ko'rinishda bo'ladi.

Bundan tashqari, PIRLS xalqaro baholash dasturida o'quvchi, o'qituvchi, maktab ma'muriyati va ota-onalardan olinadigan so'rovnomalar ham alohida o'rin tutadi. So'rovnomalar o'tkazishdan asosiy maqsad o'quvchining o'qish sharoitini bilish, oila va maktab muhiti haqida ma'lumotga ega bo'lish sanaladi.

O'qituvchilardan olinadigan so'rovnomalarning maqsadi esa o'qituvchining ish sharoiti bilan tanishish, sinf xonasining kompyuter vositalari bilan jihozlanganligi, sinf kutubxonasining mavjudligi haqida ma'lumotlarga ega bo'lish.

Maktab ma'muriyatidan olinadigan so'rovnomalar mazmuni maktabning ayni vaziyatdagi holati haqida umumiy ma'lumotga ega bo'lishdan iborat. Bunday ma'lumotlarni maktab direktorlari beradi.

Ota-onalardan olinadigan so'rovnomalarning maqsadi esa ota-onalarning o'z farzandlarining o'qishi bilan qiziqish darajasi, farzandining ta'lim muassasi haqidagi ma'lumotlarga ega bo'lish.

Bolalar uchun beriladigan so'rovnomalarga o'quvchilar aniq va to'g'ri javob berishlari uchun ularni kompyuter texnologiyalari bilan tanishtirish, o'z uyida kichik kutubxonasini tashkil etishga yordam berish kerak.

2016-yilda muqobil tanlov asosida bugungi kunda dolzarblashib borayotgan onlayn o'qish savodxonligini aniqlashga qaratilgan ePIRLS tadqiqoti ham ishlab chiqildi.[3]

Xulosa va takliflar.

Bugungi kunda boshlang'ich sinf o'quvchilarini PIRLS va ePIRLS xalqaro baholash dasturiga tayyorlashda ularga mos shart-sharoitlarni yaratishda o'qituvchi, maktab va ota-ona hamkorligi katta ahamiyatga ega.

Shuning uchun o'qituvchi va o'quvchi munosabatini, maktab va ota-ona munosabatini yaxshilashga qaratilgan tadbirlar tashkil etilishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Uzreport.news [https:// www.uzreport.news/ society/ mamlakatimiz-o'quvchilari-pirls-2021-xalqaro-baholash- dasturida-ishtirok-etadi](https://www.uzreport.news/society/mamlakatimiz-o'quvchilari-pirls-2021-xalqaro-baholash-dasturida-ishtirok-etadi).
2. PIRLS tadqiqotlari uchun topshiriqlar to'plami. O'quv-uslubiy qo'llanma. Samarqand-2019. 9-18-bet.
3. Namuna Mahmudova. PIRLS va ePIRLS tadqiqotlarining o'ziga xos xususiyatlari va o'qish savodxonligi. Maqola. Science and Education-2022.
4. Karimberdiyev Q. K. PIRLS xalqaro tadqiqoti. TSBM.
5. <https://t.me/milliymarkaz>.